

Termiz shahridagi bir guruh yoshlar ishtirokida sayohatlar tashkil etildi



Termiz shahridagi bir guruh yoshlar ishtirokida sayohatlar tashkil etildi

Termiz shahar 9- Sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida "Yoshlarni qo'llab - quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" davlat dasturi doirasida yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil yetish bo'yicha tashkil yetilgan diqqatga sazovor joylarga sayohat uyushtirildi.

Sayohatga 9-"V", "G" sinf o'quvchilari maktab psixologi Nodira Xudoynazarova bilan birgalikda "ZIF TEKSTIL" kombinatiga borishdi.

Shungdek, shahrimizdagi 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida Yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida Termiz shahar hokimligi rejasi asosida "Adib

Sobir Termiziy" nomidagi Surxondaryo viloyat Axborot-kutubxona markaziga sayohat uyushtirildi.

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etilgan ushbu sayohat yoshlarda katta qiziqish uyg'otib, ularning quvonchiga-quvonch qo'shdi.